

UDK: 1751

JINOYATCHILAR NUTQINING GRAMMATIK O‘ZIGA XOSLIGI

Dedaxanova Muazzam Altmishbayevna,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Shanghai International Studies University (SISU)
Shanxay, Xitoy
(ORSID: 0000-0001-7465-1058)
G-mail: filologmuazzam@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyatchilar nutqidagi grammatik o‘ziga xoslikning ahamiyati xususida so‘z boradi. Zero, har bir shaxsning ichki dunyosi, fikrlash tarzi va ruhiy holati ko‘p hollarda uning tilida namoyon bo‘ladi. Jinoiy nutqda pragmatik va psixologik jihatlarning aks etishi jinoyat izlarini aniqlashda muhim hisoblanadi. Detektiv asarlardagi jinoyatchilar nutqini lingvistik ekspertiza nuqtayi nazaridan tadqiq va tahlil qilish bu boradagi mavjud muammolarni bartaraf etishga ko‘maklashadi. Maqolaning amaliy ahamiyati oliy o‘quv yurtlaridagi amaliy tilshunoslik, stilistika, lingvistika, badiiy matn tahlili kabi kurslarda, shuningdek, lingvistik ekspertiza amaliyotida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: jinoyatchi nutqi, semantika, grammatika, morfologiya, sintaksis, pragmatika, psixologik jihatlar, “Shaytanat”.

Аннотация. В статье рассматривается значение грамматического своеобразия речи преступников. Отмечается, что внутренний мир личности, особенности мышления и психологическое состояние нередко находят отражение в речи человека. Проявление прагматических и психологических аспектов в криминальной речи имеет важное значение при выявлении следов преступления. Исследование речи преступников в детективных произведениях с точки зрения лингвистической экспертизы способствует решению существующих проблем в данной области. Практическая значимость статьи заключается в возможности использования её материалов в курсах прикладной лингвистики, стилистики, анализа художественного текста, а также в практике лингвистической экспертизы.

Ключевые слова: речь преступников, семантика, грамматика, морфология, синтаксис, прагматика, психологические аспекты, “Шайтанат”.

Abstract. The article discusses the significance of the grammatical distinctiveness of criminals' speech. It is noted that a person's inner world, way of thinking, and psychological state are often reflected in their speech. The manifestation of pragmatic and psychological aspects in criminals' speech plays an important role in identifying traces of crime. The study of criminals' speech in detective works from the perspective of linguistic expertise contributes to addressing existing issues in this field. The practical significance of the article lies in the possibility of using its materials in courses on applied linguistics, stylistics, and literary text analysis, as well as in the practice of linguistic expertise.

Keywords: Criminals' Speech, Semantics, Grammar, Morphology, Syntax, Pragmatics, Psychological Aspects, “Shaytanat”.

Kirish. Jinoyat olami – o‘ziga xos qonun-qoidalari, iyerarxiyasi, axloq me‘yorlari va, albatta, o‘z til uslubiga ega bo‘lgan murakkab ijtimoiy hodisa. Bu jinoiy subkultura tili ikki muhim vazifani bajaradi: birinchidan, u guruh ichidagi maxfiy muloqot vositasi hisoblanadi; ikkinchidan, jinoyatchining o‘z guruhiga mansubligini, iyerarxiyadagi o‘rni, hayotiy qarashlari va qadriyatlarini ifodalaydi. Aynan shuning uchun badiiy asarda jinoyatchilar nutqini o‘rganish orqali nafaqat qahramonning nutqiy portretini, balki butun bir subkulturaning dunyoqarashi va psixologiyasini tiklash mumkin.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek adabiyotida jinoyatchilar nutqining grammatik va pragmatik xususiyatlari Tohir Malikning Shaytanat asari misolida yorqin namoyon bo‘ladi. Asarda jinoyat olami vakillarining nutqi orqali ularning ruhiy holati, dunyoqarashi va ijtimoiy mavqei ifodalanadi. Xususan, qisqa va keskin gaplar, so‘roq shaklidagi tahdidli konstruksiyalar hamda hurmatsizlikni bildiruvchi grammatik vositalar jinoyatchilar nutqining asosiy xususiyatlari sifatida kuzatiladi. Bu esa jinoyatchilar nutqini lingvistik va pragmatik jihatdan o‘rganish muhimligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada lingvistik kuzatish, differensial-semantik tahlil kabi usullardan kompleks foydalanildi. Jinoyatchilar nutqidagi umumiy til birliklari semantik jihatdan siljiganligi va gap qurulishida pragmatik hamda psixologik jihatlar ifodasi birgalikda tahlil qilingan.

Tahlillar va natijalar. Glen Uolters (Glenn Walters) ta'rifiga ko'ra, jinoiy tafakkur deganda, shaxsning jinoyat sodir etishini qo'llab-quvvatlovchi, o'zini oqlovchi va rag'batlantiruvchi fikrlash uslublari, e'tiqodlar hamda munosabatlar majmui tushuniladi. Qolaversa, u odatiy qonunbuzarlik xatti-harakatlarini boshlash va davom ettirishga yordam beruvchi fikr mazmuni va jarayonidir.[3.87–99] Jinoyatchilarning fikrlash jarayoni – puxta o‘rganish va tushunishni talab qiladigan murakkab va ko‘p qirrali hodisa [1]. Jinoyatchi nutqi ham shu asosida shakllangan bo‘lib, unga xos grammatik jihatlar, odatda, morfologik va sintaktik xususiyatlar orqali namoyon bo‘ladi. Xususan, muayyan turkumdagi so‘zni ko‘p qo‘llash, buyruq mayli va fe‘l nisbatlarining ustunligi, undovlarning o‘rni yoki qo‘shimchalarni xato qo‘llash kabilar morfologik xususiyatga misol bo‘ladi. Bunday xususiyatlar nafaqat tergov yoki boshqa jarayonda hayajonlangan vaqt, balki har qanday vaziyatda ham yolg‘onni yashirishga urinish, o‘zini oqlash va hattoki nutqiy o‘ziga xoslik sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Sintaktik xususiyatlar esa to‘liqsiz gaplardan unumli foydalanish yoki, aksincha, mavzudan chetga chiqqan holda ko‘p gapirish, mantiqsiz jumlar qurish, chalkash fikrlar ifodalash, bitta savolga har gal har xil javob berish kabi jihatlarda ko‘zga tashlanadi. Gap tuzilishi, takrorlar, qisqa, kesik gaplar (ellipsis) va undov konstruksiyalarining faolligi bu borada alohida ahamiyatga ega. 1968-yilda Jan Svartvik ham lingvistik ekspertiza (forensic linguistics) atamasini ilk bor sintaktik tahlil misolida qo‘llagan edi. U politsiyaga berilgan bayonotlardagi bahsli qismlar va gumonlanuvchining haqiqiy nutqi o‘rtasidagi sintaktik (grammatik) farqlarni birinchi bo‘lib miqdoriy (statistik) usulda isbotladi [2]. Bu kashfiyot zamonaviy stilistikaning poydevorini yaratdi.

Shaxsning individual xususiyatlarini ochib berishda, avvalo, uning so‘z tanlash mahorati va nutqidagi ma‘naviy qirralarga e‘tibor qaratilishi bejiz emas. Chunki har bir shaxsning ichki dunyosi, fikrlash tarzi va ruhiy holati ko‘pincha uning tilida namoyon bo‘ladi. Shunga asosan pragmatik va psixologik jihatdan o‘ziga xosligiga ko‘ra jinoyatchilar nutqidagi gap qurilishining semantik xususiyatiga e‘tibor qaratish zarur. Muomala madaniyatidan bexabarlik, doim ustun kelishga urinish jinoyat olami vakillarining eng muhim individual xarakterli jihati hisoblanadi. Misol tariqasida

“Shaytanat” romanidagi Kesakpolvon(Haydar)ning Abdurahmon tabib bilan bo‘lib o‘tgan quyidagi suhbatiga e‘tibor qarataylik:

— *Siz tabibmisiz o‘zi?*

— *Odamlar shunaqa deyishadi. Oллоh istasa, men bir vosita bo‘laman-u dardmandga shifo yetadi. Bo‘lmasa yo‘q.*

— *Nima, mening oshnamni davolashni Xudoyingiz istamayotibdimi?* — dedi Kesakpolvon, g‘ijinib.

— *Oллоh, bir meniki emas, barchamizniki...* [4.15-16]

Dialogdagi “*Siz tabibmisiz o‘zi?*” gapi so‘roq shaklida bo‘lishiga qaramay, *-mi* yuklamasi so‘roq ma‘nosidan ko‘ra kamsitish maqsadini kuchliroq ifodalagan. Grammatik jihatdan “*o‘zi*” so‘zi o‘zlik olmoshi emas, balki “axir” yuklamasi vazifasida qo‘llangan bo‘lib, so‘roq shaklini kuchaytirish bilan bir qatorda pragmatik jihatdan hurmatsizlik va ishonchsizlik ma‘nolarini ifodalaydi. Psixologik jihatdan esa bu grammatik element (ya‘ni “*o‘zi*”) orqali so‘zlovchining o‘zini boshqalardan ustun qo‘yishga moyilligi, suhbatdoshiga nisbatan kamsitish hissi namoyon bo‘lmoqda. “*Nima, mening oshnamni davolashni Xudoyingiz istamayotibdimi?*” deya ikkinchi gapida ham “*nima*” so‘roq olmoshi orqali so‘roq ma‘nosi emas, balki mensimaslik hissiy holatining keskinligi ko‘rsatilgan. II shaxs egalik qo‘shimchasi shaklidagi “*Xudoyingiz*” so‘zi ajratish/senkretizm pragmatik ma‘nosini ifodalaydi. So‘roq shaklidagi inkor (“*istamayotibdimi*”) orqali esa ta‘kid va norozilik kuchaytirilgan.

Umuman olganda, bu ikki gap ham sodda va qisqa, so‘roq shaklida bo‘lib, hurmat shakli (kishilik olmoshi, bog‘lama va egalik qo‘shimchasi orqali) saqlanayotgan bo‘lsa-da, *o‘zi, nima, Xudoyingiz, -mi* vositalari tanlovi sababli hurmatsizlik ma‘nosi ustunlik qilmoqda.

Xulosa. Jinoyat turlari ko‘payib, zamon rivojlangani sari qanchalik murakkablashib borayotgan bo‘lsa, jinoyatchi shaxsini identifikatsiya qilish usullari ham shu qadar takomillashib bormoqda. Shunga ko‘ra, jinoyatchilar maqsadining mazmun-mohiyatini anglash uchun ularga xos nutqning nafaqat leksik, semantik, balki grammatik (morfologik hamda sintaktik) va boshqa til xususiyatlari qatorida lingvopsixologik va lingvopragmatik jihatlariga ham e‘tibor qaratish lozim. Chunki bu xususiyatlar lingvistik ekspertiza uchun har qanday davrda birdek dolzarb va eskirmaydigan tahlil usulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Guan, X., & Lo, T.W. (2022). Proactive criminal thinking and restrictive deterrence: A pathway to future offending and sanction avoidance. *International Journal of Environmental Research and Public Health*, **19**(18), 11636. <https://doi.org/10.3390/ijerph191811636>
2. Svartvik, Jan (1968). *The Evans Statements: A Case for Forensic Linguistics*. Gothenburg Studies in English; vol. 20. – Göteborg: University of Göteborg.
3. Walters, G. D. (2006). Appraising, Researching and Conceptualizing Criminal Thinking: A personal view. *Criminal Behaviour and Mental Health*, **16**(2), 87–99.
4. Тоҳир Малик (2008). Шайтанат. 3-китоб. www.ziyouz.com